

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI

Jo'raqulova Mushtariy Abdumalik qizi

e-mail address: mushtariy00712@gmail.com

Tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17530884>

Annotatsiya. Globallashuv jarayonida sport nafaqat ijtimoiy-madaniy hodisa, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida tadqiq etilayotgan sohalardan biridir. Sport terminlari milliy tillarning lug'at boyligini boyitishda, yangi so'z yasash jarayonlarida va xalqaro muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va ingliz tillarida sportga oid terminlarning shakllanishida umumiylik va farqlanish mavjud bo'lib, ular affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya, semantik kengayish va qabul qilingan so'zlar orqali yasaladi.

Mazkur tadqiqot ushbu ikki til paralleligida sport terminlarining yasallishini o'rganish va ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: affiks, kompozitsiya, abbreviatsiya, semantik kengayish, qabul qilingan so'zlar, sport terminologiyasi, parallelizm.

Abstract. In the process of globalization, sports are not only a socio-cultural phenomenon but also a field that is being studied from a linguistic perspective. Sports terminology plays an important role in enriching the vocabulary of national languages, in the processes of word formation, and in international communication. In the formation of sports-related terms in Uzbek and English, both similarities and differences are observed, as they are created through affixation, composition, abbreviation, semantic extension, and borrowed words.

This study aims to explore the word-formation processes of sports terms in the parallelism of these two languages and to identify their linguistic features.


Keywords: affix, composition, abbreviation, semantic extension, borrowed words, sports terminology, parallelism.

Аннотация. В условиях глобализации спорт рассматривается не только как социально-культурное явление, но и как область, изучаемая с лингвистической точки зрения. Спортивная терминология играет важную роль в обогащении словарного запаса национальных языков, в процессах словообразования и в международной коммуникации. В формировании спортивных терминов в узбекском и английском языках наблюдаются как общие черты, так и различия: они образуются посредством аффиксации, композиции, аббревиации, семантического расширения и заимствованных слов. Настоящее исследование направлено на изучение процессов словообразования спортивных терминов в параллели этих двух языков и выявление их лингвистических особенностей.

Ключевые слова: аффикс, композиция, аббревиация, семантическое расширение, заимствованные слова, спортивная терминология, параллелизм.

Til taraqqiyoti jarayonida yangi tushunchalarni ifodalash, ayniqsa sport sohasi terminlarini shakllantirishda so'z yasashning affiksial usuli katta ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillarida sport terminlari affikslar yordamida hosil qilinadi, ammo ularning yasallish mexanizmlarida muayyan farqlar mavjud.

O'zbek tilida yangi so'zlar asosiy besh xil uslubda yasaladi:



I. O'zbek tilida sportga oid terminlar ko'pincha affiks ya'ni qo'shimchalar yordamida yangi termin hosil qilinadi. Ular quyidagicha

1. **-chi** ma'lum sport turi bilan shug'ullanuvchini bildiradi.

- futbol → futbolchi
- boks → bokschi[1]

2. **-uvchi**

Harakatni bajaruvchini bildiradi.

- yugur- → yuguruvchi
- suz- → suzuvchi

3. **-lik**

Holat yoki faoliyat nomini bildiradi.

- sportchi → sportchilik
- murabbiy → murabbiylik

4. **-dosh**

Sheriklikni bildiradi.

- jamoa → jamoadosh
- musobaqa → musobaqadosh

5. **-boz, -xona**

Mos ravishda shug'ullanuvchini yoki joyni bildiradi.

- kurash → kurashboz Dor -dorboz
- sport → sportxona

II. Kompozitsion usul sport terminologiyasida keng tarqalgan. [2] Ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali murakkab terminlar hosil bo'ladi:

- stol tennis
- qo'l jangi
- suv sporti
- erkin kurash
- ot sporti

• III. Abbreviatsiya

Xalqaro sport tashkilotlari nomlari qisqartma ko'rinishda faol qo'llanadi:

- FIFA — Xalqaro futbol federatsiyasi
- UEFA — Yevropa futbol assotsiatsiyasi
- O'zPFA — O'zbekiston professional futbol assotsiatsiyasi

Abbreviatsiya usuli sport terminologiyasida ko'proq zamonaviy jarayonlar bilan bog'liqdir.

IV. Semantik usul

Ba'zi umumtil so'zlari sport terminiga aylangan:

- ring — dastlab “halqa”, sportda esa boks maydoni ma'nosida
- maydon — umumiy joy tushunchasidan futbol maydoni ma'nosiga kengaygan

V. Qabul qilingan so'zlar

Sport terminologiyasi ko'p jihatdan xalqaro leksikaga tayangan. Bir qator so'zlar boshqa tillardan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan:

- futbol (ing. football)
- basketbol (ing. basketball)
- tennis (fr. tennis)
- karate, judo (yap. kelib chiqishi)[3]

Ingliz tilida sport terminlarining affiksali yasalihi (derivation)

I. Ingliz tilida esa sport terminlari ko'pincha suffix va prefixlar yordamida hosil qilinadi.

1. –er / –or sport turi bilan shug'ullanuvchini bildiradi.

- run → runner (yuguruvchi)
- swim → swimmer (suzuvchi)
- compete → competitor (musobaqadosh)

2. –ing jarayon yoki mashg'ulotni bildiradi.

- boxing (boks)
- running (yugurish)
- training (mashq)

3. –ship holat yoki mavqe bildiradi.

- sportsmanship (sportchilik, halollik)
- championship (chempionlik)

4. –mate / –partner sheriklikni bildiradi.

- teammate (jamoadosh)
- playmate (o'yin sherigi)

5. Prefix misollari

- pre-match (o'yin oldidan)
- post-game (o'yin tugagandan keyin)
- co-player[4] (birgalikda o'ynovchi)

II. Kompozitsiya (compounding)

Ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi bilan yangi sport atamasi hosil qilinadi:

- football (foot + ball) – futbol
- basketball (basket + ball) – basketbol
- weightlifting (weight + lifting) – og'ir ko'tarish
- table tennis[5] (table + tennis) – stol tennisi

III. Abbreviatsiya (abbreviation & acronyms)

Xalqaro sport tashkilotlari nomlari va sport musobaqalari qisqartmalar shaklida qo'llanadi:

- FIFA – International Federation of Association Football
- NBA – National Basketball Association

- UFC – Ultimate Fighting Championship
- ATP – Association of Tennis Professionals

IV. Semantik kengayish (semantic extension)

Oddiy soʻz sport sohasida yangi maʼnoda ishlatiladi:

- ring – aslida “uzuk” yoki “halqa”, sportda esa boks maydoni
- field – “dala”, sportda futbol yoki regbi maydoni
- match – oddiy “mos kelish”, sportda esa oʻyin, bellashuv

V. Qabul qilingan soʻzlar (borrowings)

Ingliz sport terminologiyasi ham boshqa tillardan soʻzlarni oʻzlashtirgan:

- karate, judo, sumo (yapon tilidan)
- samba football (portugalcha taʼsir)
- taekwondo (koreys tilidan)

Ikki tildagi sportga oid terminlarni taqqoslab koʻrilganda,

• Oʻzbek tilida –chi qoʻshimchasi juda faol boʻlsa, ingliz tilida unga mos ravishda –er / –or suffixlari keng qoʻllanadi.

• Oʻzbek tilida harakatni bildiruvchi –uvchi affiksi mavjud, ingliz tilida esa bu maʼno koʻproq –er yoki –ing bilan ifodalanadi.

• Oʻzbek tilidagi –lik suffixi ingliz tilidagi –ship ga maʼno jihatdan mos keladi (sportchilik – sportsmanship).

• Sheriklikni anglatuvchi oʻzbekcha –dosh ingliz tilida –mate / –partner orqali ifodalanadi (jamoadosh – teammate).

• Oʻzbek tilida joy nomlari uchun –xona, –zor ishlatilsa, ingliz tilida koʻproq mustaqil soʻzlar ishlatiladi: gym (sport zali), stadium (stadion)[6].

Oʻzbek va ingliz tillarida sport terminlari koʻpincha bir xil usullar bilan yasaladi: qoʻshimcha qoʻshish, soʻzlarni qoʻshib yozish, qisqartmalar va mavjud soʻzga yangi maʼno berish orqali. Masalan, **futbolchi – footballer, qoʻl toʻpi – handball**.

Farqi shundaki, ingliz tilida **-er, -ist, -ing** kabi qoʻshimchalar koʻp ishlatilsa, oʻzbek tilida **-chi, -lik, -kor, -dosh** koʻp qoʻllanadi. Ingliz tilida sport terminlari koʻp hollarda boshqa tillardan (masalan, judo, karate) olinadi, oʻzbek tilida esa asosan rus tili orqali kirgan (futbol, basketbol).

Umuman olganda, ikkala til ham sport terminlarini yasashda oʻxshashlikka ega, lekin qoʻshimchalar va oʻzlashmalar manbasi turlicha.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va ingliz tillaridagi sport terminlari parallellikda rivojlanadi, faqat ularni shakllantirishda milliy til xususiyatlari va boshqa tillardan oʻzlashmalar muhim rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Yoʻldoshev, M. Oʻzbek tilining soʻz yasalishi. – Toshkent: Fan, 1980. – 300 b.
2. Nurmonov, A. Leksikologiya va terminologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 215 b.
3. Rasulov, R. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 280 b.
4. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2008. – 529 p.
5. Matthews, P. H. Morphology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 235 p.

6. Karimov, S., & Xudoyberganova, M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010. – 250 b.
7. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti (monografiya). – Toshkent: Muharrir, 2018.57b.
8. Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta, 2(38), 12 7.